

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA  
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.60.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**KURBANOV ELBEK ELMURODOVICH**

**NUTQIY TA'SIR ETISHNING KOGNITIV-PRAGMATIK  
XUSUSIYATLARI**

**10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi**

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2022**

**UDK: 81'322.5**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Kurbanov Elbek Elmurodovich**

Nutqiy ta'sir etishning kognitiv-pragmatik xususiyatlari..... 5

**Kurbanov Elbek Elmurodovich**

Cognitive-pragmatic features of speech impact.....25

**Курбанов Элбек Элмуродович**

Когнитивно-прагматические особенности речевого воздействия.....47

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works.....52

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA  
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.60.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**KURBANOV ELBEK ELMURODOVICH**

**NUTQIY TA’SIR ETISHNING KOGNITIV-PRAGMATIK  
XUSUSIYATLARI**

**10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2022**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.4.PhD/Fil676 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida ([adu.uz](http://adu.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Rustamov Dilshodbek Abduvaxidovich**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponenlar:**

**Xamroyeva Shaxlo Mirdjanovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Toirova Nargiza Isaqovna**  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qo‘qon davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.60.02 raqamli Ilmiy kengashning «\_\_\_» \_\_\_\_\_2022 yil soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahar, Universitet ko‘chasi 129 uy. Tel: 0(374) 223 88 14; faks: 0(374) 223 88 30 e-mail: [agsu\\_info@edu.uz](mailto:agsu_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 170100, Andijon shahar, universitet

Dissertatsiya avtoreferati 2022 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_kuni tarqatildi. (2022 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**Sh.H.Shaxabitdinova**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**F.F.Usmanov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori

**M.I.Umarxodjaev**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida lisoniy vositalarni, matnni, muloqot shakllarini zamonaviy aspektlarda o'rganish amaliy zaruratga aylanmoqda. Xususan, nutqiy ta'sir hodisasi tilning kommunikativ vazifasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tilshunoslikda uning eng muhim ikki jihati: kommunikantlarning umumiy ongi va muloqotning maqsadga muvofiqligini hisobga olish asosida tasvirlash, qolaversa, ta'sirni amalga oshirish, ya'ni perlokutsiya bilan bog'lab o'rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim masalaridan hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida nutqiy ta'sir nazariyasining vujudga kelishida bugungi kunda ijtimoiy madaniy rivojlanishning muqobil nazariyasiga aylangan manipulyatsiya hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ta'sir etuvchi nutqning ahamiyati tarkibida quyidagilar mavjud: lingvistik aspekt (nutqiy strategiyalar); vaziyatning ekstralingvistik mazmuni; paralingvistik loyihalash. Jumladan, paremiya, barqaror birikmalar, diskursiv gaplar va stereotiplar nutqiy ta'sirning diskursiv birliklari sifatida o'rganilmoqda. Nutqiy ta'sirning bahs-munozarali, tibbiy, badiiy, she'riy va reklama turlaridagi vositalari ham dunyo tilshunosligida faol o'rganiladi.

Mamlakatimiz tilshunosligida nutqiy ta'sir nutqiy muloqotning muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganiladi. Shaxsga konkret kommunikativ vaziyatdagi ta'sirlar, qobiliyatiga qarab nutqiy ta'sir ko'rsatishning turli usullarini to'g'ri birlashtirish suhbatdosh va muloqot vaziyatining eng muhim qismidir. O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining har tomonlama rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohalarni yana ham rivojlantirish haqidagi ko'rsatmalarga asosan tilshunoslik oldiga qo'yilgan vazifalar sirasida shaxsga nutqiy ta'sir ko'rsatishning kognitiv-pragmatik xususiyatlarini o'rganishni ham ko'rsatish mumkin. "Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir"<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi, 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нufузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5850-сон Фармони. Манба: <http://lex.uz/docs/4561730>

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Hozirgi zamon tilshunosligida nutqiy ta’sir masalasidagi tadqiqotlar ilmiy-metodik yo‘nalishdagi qator sohalarni: kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika va psixolingvistikani bog‘lovchi jadal rivojlanayotgan fan sohasidir. Ma’lumki, nutqiy ta’sir masalasi rus tilshunosligida eng dolzarb lingvistik sohalardan biri hisoblanadi. Bunday tadqiqotlar O‘zbekistonda ham olib borila boshlandi, biroq ular, asosan, OAV materiallari, reklama matnlarida o‘z aksini topgan. Muammo shundaki, nutqiy ta’sir va uni ifodalovchi lisoniy vositalar o‘zbek tilshunosligida maxsus tadqiq qilinmagan ayrim maqola shaklidagi ishlarni hisobga olmaganda monografik planda deyarli o‘rganilmagan.

Dunyo tilshunosligida bu yo‘nalishda bir qator izlanishlar olib borilgan. Dastlab nutqiy ta’sir tushunchasi maxsus o‘rganilib, keyinchalik lingvistik tadqiqotlar sohasida dolzarblik kasb etdi. Jumladan, jahon tilshunosligida S.G. Kara-Murza, Yu.A. Didik, L.L. Fedorova, A.A. Kotov, Kiseleva, O.S. Issers, I.A. Sternin, Ye.V. Denisjuk B.A. Yermolayev<sup>2</sup>lar tomonidan nutqiy ta’sir masalasi maxsus o‘rganilgan. Tadqiqotlarda mazkur yondashuvning asosi, o‘rganish texnologiyalari, til va muloqot jarayonida lisoniy birliklarning kognitiv-pragmatik tadqiqi kabi masalalar o‘rganilgan.

O‘zbek tilshunosligida alohida muammo sifatida o‘rganishga oid tadqiqotlar endi paydo bo‘lmoqda. Xususan, S.Mo‘minov<sup>3</sup> o‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlarini o‘rgangan. D.Rustamov<sup>4</sup> muloqotning umumiy tavsifi va nazariy muammolari bilan shug‘ullangan. Sh Alpanova<sup>5</sup> nutqiy faoliyat jarayonidagi ruhiy holatlarning o‘zbek tilining turli sath birliklari vositasida aks

<sup>2</sup> Ермолаев Б.А. Целеобразование в коммуникации // Оптимизация речевого воздействия. – М.: Наука, 1990. – С. 46-55. Хворостин Д.В. Скрытые компоненты смысла высказывания: принцип выявления: Автореф. дис. канд. филол. наук. Челябинск, 2006. – 22 с. Стернин И. А. Введение в речевое воздействие. – Воронеж: Кварта, 2001. – С. 55-59. Тарасов Е.Ф. Речевое воздействие: методология и теория // Оптимизация речевого воздействия. – М.: Наука, 1990. – С. 5-18. Денисюк Е.В. Манипулятивное речевое воздействие (коммуникативно-прагматический аспект): Дис. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург: Уральский гос. ун-т, 2003. – 200 с. Кара-Мурза С. Г. Манипуляция сознанием [Электронный ресурс] / С. Г. Кара-Мурза. – М.: Алгоритм, 2000. – Режим доступа: <http://www.kara-murza.ru/manipul.htm> (дата обращения: 28.03.2021). Попова Е.С. Структура манипулятивного воздействия в рекламном тексте / Е. С. Попова // Известия Уральского государственного университета. Гуманитарные науки. – Вып. 5. Языкознание. – Екатеринбург, 2002. – №24. – С. 276-288. Дидык Ю.А. Речевая манипуляция в оригинальном и переводном тексте (на материале пьес Б. Шоу): Дис. ... канд. филол. наук. – Саратов: Ульяновский гос. ун-т, 2010. – 250 с. Котов А.А. Механизмы речевого воздействия в текстах СМИ: Дис. ... кандидата филол. наук. – М.: Российский гос. гуманитарный ун-т, 2003. – 280 с. Mamirova D Reklama matnlarining o‘ziga xos xususiyatlariga doir ayrim mulohazalar/ Xorijiy filologiya. – Samarqand, 2021. – B.24-27.

<sup>3</sup> Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари – Фарғона, 2021. – 224 б.

<sup>4</sup> Рустамов Д. Мулоқотнинг интралингвистик ва экстралингвистик талқинлари ҳамда замонавий концепциялари. Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати – Андижон, 2021. – 66 б.

<sup>5</sup> Алпанова Ш.Х. Нутқий фаолият жараёнидаги рухий ҳолатларнинг ўзбек тилининг турли сатҳ birliklari воситасида акс этиши. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Фарғона, 2018. – 133 б.

etishini tadqiq qilgan. E. Ibragimov<sup>6</sup> yoshlar dunyoqarashini boshqarish sabablari va yo'llariga doir tadqiqotida nutqiy ta'sir masalasiga to'xtalib o'tadi. D.Mamirova esa reklama matnlarining o'ziga xos ta'sirining lingvistik xususiyatlarini o'rgangan<sup>7</sup>.

Biroq shaxsga nutqiy ta'sir ko'rsatishning kognitiv-pragmatik xususiyatlari o'zbek tili materiallari asosida monografik tarzda o'rganilmagan. Dissertatsiyani yozish jarayonida nomlari ko'rsatilgan va boshqa bir qator o'zbek hamda jahon tilshunoslarining ilmiy izlanishlari e'tiborga olindi. Mazkur tadqiqotda nutqiy ta'sir qilishning lisoniy imkoniyatlari ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoq materiallari asosida tahlil etilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Andijon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Tilni sistema sifatida tadqiq etish, tatbiqiy tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik" mavzusi bilan bog'liq ravishda bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** nutqiy ta'sir ko'rsatishning kognitiv-pragmatik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

jahon tilshunosligida nutqiy ta'sir masalasining kognitiv-pragmatik aspektda o'rganilishini tahlil qilish;

o'zbek tilshunosligida nutqiy ta'sir masalasining kognitiv-pragmatik aspektda o'rganilishini tahlil qilish;

nutqiy muloqot va nutqiy ta'sir masalasiga doir tadqiqotlarini o'tkazishda mavjud va yuzaga keladigan muammolarni o'rganish, oldindan ko'rish, ularni kelajakdagi nutq vaziyatlarida ko'rib chiqish;

nutq bilan bog'liq pragmatik muammolar, nutqiy xulq-atvorning belgilangan stereotiplariga munosabatini o'rganish;

shaxsga nutqiy ta'sir ko'rsatishning pragmatik vositalarini xususiyatiga ko'ra turli til sathlarida ko'rib chiqish;

nutqiy ta'sir ko'rsatishda fonetik omillarni hisobga olgan holda pragmatik tahlillar o'tkazish;

nutqiy ta'sir etishda troplardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berish;

nutqiy ta'sir etishda frazeologik, paremiologik vositalarning o'rnini ko'rsatib berish;

o'ziga xos nutqiy ta'sir kuchiga ega dialogni yaratishda ishtirok etadigan lisoniy birliklarning kognitiv-pragmatik imkoniyatlarini aniqlash.

**Tadqiqotning obykti** zamonaviy ommaviy axborot vositalari, frazeologik birliklar, reklama matnlari, shuningdek, tezkor ijtimoiy tarmoq matnlaridir.

**Tadqiqotning predmeti** nutqiy ta'sirni yuzaga keltiruvchi lisoniy birliklarning kognitiv-pragmatik xususiyatlaridir.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, zidlash,

---

<sup>6</sup> Ибрагимов Э. Ёшлар дунёқарашини бошқариш сабаблари ва йўллари/ <https://elibrary.ru/defaultx.asp>

<sup>7</sup> Mamirova D Reklama matnlarining o'ziga xos xususiyatlariga doir ayrim mulohazalar/ Xorijiy filologiya. – Samarqand, 2021. – B.24-27.

tasniflash, suhbat, distributiv, struktural va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

nutqiy ta'sirga ega bo'lgan nutqni shakllantirishda o'zbek tilining ekspressiv imkoniyatlariga bog'liq ravishda, birinchi navbatda, lisoniy imkoniyat, ikkinchi o'rinda muloqot jarayonining ekstralingvistik ta'minoti, uchinchi o'rinda paralingvistik vositalar bilan boyitilganlik turishi aniqlangan;

o'zbek lisoniy qadriyatlarida nutqiy ta'sirning asosiy usullariga ishonitirish, so'rash va taklif kabi asosiy uzvlar kirishi dalillangan;

nutqiy ta'sir effektini oldindan bilish, uni kelajakdagi nutq vaziyatlarida tasavvur qilishning milliy-madaniy, fonopragmatik va leksik pragmatik imkoniyatlari aniqlangan;

nutqiy ta'sir etishda troplardan foydalanishning o'ziga xos lingvomadaniy xususiyatlari, shuningdek, frazeologik, paremiologik vositalardan foydalanish, nutqiy ta'sir kuchiga ega dialogni yaratishda ishtirok etadigan lisoniy birliklarning kognitiv-pragmatik imkoniyatlari asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda erishilgan natijalardan kognitiv tilshunoslik, pragmatika, pragmlingvistika, va sotsiopragmatikaga doir izlanishlarda foydalanish mumkinligi, nutq madaniyati, ritorika, grammatika, stilistika, sotsiologiyaga doir ilmiy tadqiqotlar uchun ham bevosita material bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishda ilgari surilgan g'oyalar, nazariy qarash va amaliy tavsiyalar darsliklar monografiyalar, o'quv qo'llanmalar yaratishda hamda ma'ruza matnlari tayyorlashda manba bo'la olishi, unda to'plangan materiallar oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida "Til nazariyasi", "Matn tahlili", "Matnning filologik tahlili", "Tahliliy o'qish", shuningdek, magistratura ixtisosliklarida "Sotsiolingvistika", "Pragmlingvistika", "Sotsiopragmatika" hamda "Psixolingvistika" fanlaridan ma'ruza matnlari tuzishda, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun fan dasturlari, o'quv dasturlari tayyorlashda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** "Nutqiy ta'sir etishning kognitiv-pragmatik xususiyatlari" mavzusida olib borilgan tadqiqot asosida:

nutqiy ta'sir effektini oldindan bilish, uni kelajakdagi nutq vaziyatlarida tasavvur qilishning milliy-madaniy pragmatik imkoniyatlariga doir xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Manaviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamentining sud nutqining sotsiolingvistik, psixolingvistik xususiyatlarini o'rganish faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Manaviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamentining 2021-yil 2-noyabrdagi 30/1-3850-son ma'lumotnomasi). Natijada nutqiy ta'sir jarayonida muayyan til birliklarining amaliy samaradorligi ochib berilgan;

nutqiy ta'sirga ega bo'lgan nutqni shakllantirishda o'zbek tilining ekspressiv imkoniyatlaridan kelib chiqib, birinchi navbatda, lisoniy imkoniyat, ikkinchi o'rinda muloqot jarayonining ekstralingvistik ta'minoti, uchinchi o'rinda

paralingvistik vositalar bilan boyitilganlik turishi borasidagi tadqiqot natijalaridan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan olib borilgan AM-FZ-201908172 "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" mavzusidagi innovatsion ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2020-yil 19-yanvardagi 15-85-son ma'lumotnomasi). Natijada ta'lim jarayonida muayyan til birliklarining amaliy samaradorligi ochib berilgan;

lisoniy madaniyatda nutqiy ta'sirning o'ziga xos o'rni, ommaviy nutqiy ta'sir etish, muloqot jarayonining o'ziga xosliklari, lisoniy birliklarning nutqiy ta'sir o'tkazishdagi xususiyatlarini ochib berish, shuningdek, kognitiv-pragmatik farqli birliklarning uslubiy, mazmuniy, vazifaviy jihatlarini kabi masalalar borasidagi tadqiqot natijalaridan Andijon davlat universitetida 2017-2020-yillarda olib borilgan OT-F1-18 "Ommaviy lisoniy madaniyatni shakllantirish metodlar va metodologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi davlat fundamental-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihalarda foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2022-yil 5-martdagi 39-08-545-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning ommaviy nutqiy madaniyatni shakllantirishga doir aniq diskurslarga doir tavsiyalarining nazariy asosi ta'minlangan;

nutqiy ta'sirning sud jarayoniga xos xususiyatlari, sud jarayoni qatnashchilarining nutqidagi farqlar, muloqot jarayonining genderga doir o'ziga xosliklari, lisoniy mentalitetning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish, shuningdek, muloqot jarayonidagi ijtimoiy farqli birliklarning uslubiy, mazmuniy, struktur hamda vazifaviy o'ziga xosliklari kabi masalalar borasidagi tadqiqot natijalaridan Andijon davlat universitetida 2018-2020-yillarda olib borilgan PZ-20170926286 "O'zbek amaliy sud lingvistikasi tadqiq" mavzusidagi davlat amaliy-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihalarda foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2022-yil 5-martdagi 39-08-544-son ma'lumotnomasi). Natijada nutqiy ta'sir jarayonida muayyan til birliklarining amaliy samaradorligi ochib berilgan;

nutqiy ta'sir o'tkazishning psixolingvistik omillari tahlil qilinib, insonga ta'sir o'tkazishning yuqori samaraga erishish usullarini farqli jihatlarini ilmiy asoslashga doir natijalaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali DM "Madaniy-marifiy va badiiy eshittirishlar" muharririyati tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot", "Notiqlik odobi", "Adabiy jarayon" radioeshittirishlarini tayyorlashda (2020-2021-yillar davomida) foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 12-yanvardagi 04-36-70-son ma'lumotnomasi). Natijada radiotinglovchilarga efir orqali nutqiy ta'sir o'tkazishning psixolingvistik xususiyatlari tahlil qilinib, reklama matnlari va manaviy-marifiy teleradio eshittirishlarning umumiy va o'ziga xos jihatlarini hamda ularning tomoshabinga ta'siri haqida ma'lumotlarga ega bo'lishida ilmiylik mezoni ta'minlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha respublika va xorij jurnallarida jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 4 ta maqola, shundan 2 ta maqola xorijiy nashrlarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashqari 136 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Ishning birinchi bobi "**Tilshunoslikda nutqiy ta'sir masalasi**" deb nomlanib "**Nutqiy ta'sir tushunchasi haqida**", "**Lisoniy vositalarning ta'sir kuchi**", "**Nutqiy muloqot va nutqiy ta'sir**" kabi qismlardan iborat.

Nutqiy ta'sir – kommunikativ jarayonlarda so'zlovchining o'z suhbatdoshlariga ma'lumot-axborot berishdan tashqari ularning tushuncha va his-tuyg'ulariga ta'sir etish orqali o'z qarashlari, yondashuvlarini singdirish, ommalashtirish va targ'ib etish kabilarni ham o'z ichiga oladi. Ba'zan paralingvistik, semiotik tizimlar, birinchi navbatda, imo-ishoralar, yuz ifodalari va tana harakatlari (an'anaviy ma'noda paralingvistikaning yadrosini tashkil etuvchi kinesic) dan foydalanish ham nutqiy ta'sir tushunchasi bilan bog'lanaadi. Og'zaki ijodning estetik kodlari (masalan, stilistik kodlar va intertekstual bog'lanishlar tizimi); shuningdek, yozma muloqot holatida matnni grafik loyihalash vositalari (metagrafemika), semiotika kabilar ham shular jumlasidandir.

V.fon Gumboldt: "Rivojlangan til sohibi bo'lgan insonning ulkan yutug'i shundaki, uning nazdida dunyo xuddi ikki barobar kattalashgandek bo'ladi. Til yordamida u o'zining shaxsiy tajribasiga kirmaydigan va bevosita qabul qilinmaydigan predmetlardan ham foydalana oladi. Inson ikkinchi dunyoga ega bo'ladiki, tilda bilvosita aks etuvchi predmetlar, so'z bilan ifodalanadigan obrazlar, ob'ektlar, munosabatlar va xususiyatlar dunyosi ham kiradi. Inson bu obrazlarni ular amalda bor-yo'qligidan qat'i nazar, o'z xohishiga qarab nomlashi, gapirishi, demakki, mana shu ikkinchi dunyoni boshqarishi mumkin", der ekan nutq orqali ta'sir qilishga intilish inson ongida bilish jarayoni bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlagan.<sup>8</sup> Nutqiy ta'sir masalasini bevosita Alisher Navoiy ijodi, xususan, quyidagi bayti asosida ham izohlash mumkin:

*Bayt: Yamon so'z kim, kelib jong'a urg'ay,*

<sup>8</sup> Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. – М.:Прогресс, 1984. – С.400

*Ki jondin o'tib imong'a urg'ay.(Navoiy)*

O'zbek tilining izohli lug'atida nutqiy ta'sir tushunchasi uchramaydi. Ammo jahon tilshunosligida bunday tushuncha mavjud. Masalan, rus tilida mazkur tushuncha alohida talqin qilinadi.

“Nutqiy ta'sir, keng ma'noda – turli xil nutq vositalari bilan, boshqacha aytganda - tabiiy tildagi xabarlar yordamida amalga oshiriladigan individual va/yoki jamoaviy ong va xatti-harakatlarga ta'sir qilish. Ba'zan nutqiy ta'sir tushunchasi ostida paralingvistik (ya'ni "tilga yondosh"), semiotik tizimlar yordamida tuzilgan xabarlardan foydalanish ham umumlashtiriladi ...”<sup>9</sup>

Nutqiy ta'sirning keng va tor tushunchalari o'rtasidagi munosabatni tushuntirish uchun shuni ta'kidlash lozimki, agar muloqotchilar bir-birlari bilan o'zaro munosabatda bo'lishga to'g'ri kelsa, ular o'rtasida til aloqasiga ehtiyoj tug'iladi. Misol uchun, suhbatdoshlardan biri boshqa bir buyruq yoki talabni bajarishi kerak yo bo'lmasa, uning savoliga javob berishi; maslahatlariga rioya qilishi; aytaylik, suhbatdoshlar bir joyda uchrashishlari kerak va bu haqda kelishilgan joyda kelishilgan vaqtda bo'lish haqida va'da berishadi; suhbatdoshlardan biri ikkinchisiga biror narsa haqida xabar beradi va boshqasi olgan ma'lumotiga muvofiq harakat qilishni davom ettirishini kutadi. Hech kimga hech kimdan hech narsa kerak bo'lmagan vaziyatda aloqa qilish yoki axborot uzatishning hojati yo'q, bunday paytda til ham kerak bo'lmaydi.

Aslida til odamlarning birgalikdagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi vosita vazifasini bajaradi. Har qanday nutqiy akt, shu bilan birga, uning adresatiga ta'sir ko'rsatishning maxsus shakli – kelgusida so'zlovchining faoliyatida qandaydir o'rin egallashi uchun zarur bo'lgan ayrim ma'lumotlarni ikkinchisiga uzatish orqali amalga oshiriladigan ta'sir bo'lib chiqadi.

Olamning lisoniy manzarasi inson ongida me'yoriy holatda shakllangan bo'lsa, nutq doirasi, tafakkur tarzi shunga yarasha bo'ladi. Bu asosiy holatlar nutqiy ta'sirning holatiga nisbatan osongina talqin qilinadi va uning mexanizmlarini tavsiflovchi yondashuvlarning eng umumiy bo'linishini belgilaydi. Odamlarga ta'sir ko'rsatishning har xil psixologik usullari, metodlar, mantiqiy tuzoqlar va boshqa zaif joylarni topishga qaratilgan yondashuvlar mavjud.

Odatda psixologlar tomonidan yozilgan ko'plab amaliy qo'llanmalarda keltirilgan “odamlarni boshqarish usullari” deb nomlangan ongning himoya to'siqlarini samarali bartaraf etishning turli tamoyillari qo'llaniladi.

Nutqiy ta'sir doirasida fikr yuritilar ekan bu o'rinda, albatta, “manipulyatsiya” atamasi (*aynan ma'nosini beradigan so'z bo'lmagani sababli o'zini qo'llashni ma'qul ko'rdik*) ga to'xtalmaslikning iloji yo'q.

Manipulyatsiyaning prototipik holatida manipulyatsiya qilingan shaxs bu ta'sirdan chiqib keta olmaydi, manipulyator esa ko'pincha noto'g'ri maqsadlarni ko'zlaydi. Bu ma'no taraqqiyoti nuqtai nazaridan tushunarli va asosli: agar men nima qilayotganimni bilmasam, unda men o'zligimga umuman to'g'ri kelmaydigan maqsadlarda foydalanishim mumkin. Biroq “manipulyatsiya” atamasi

<sup>9</sup> [https://www.krugosvet.ru/enc/gumanitarnye\\_nauki/lingvistika/](https://www.krugosvet.ru/enc/gumanitarnye_nauki/lingvistika/)

umumiy atama sifatida ishlatila boshlansa, unda u tomonidan qo'yilgan baholash bunday holatlarda ataylab salbiy talqinga olib keladi.

Tadqiqotchilar nutqiy ta'sirning kognitiv aspektidagi turli diskurslarga munosabatini o'rganishga hali ham yetarlicha e'tibor qaratishgani yo'q. Biroq bu masalaning ahamiyatiga to'liq baho berish qiyin, chunki, "har qanday o'zining ichida ma'lumot tashuvchi nutq, kinetik, intonatsion, akustik va undovchi boshqa ta'sir vositalari bilan nutqiy ta'sirga bevosita aloqadordir"<sup>10</sup>.

Ta'sirga ega bo'lgan nutqni shakllantirishda birinchi navbatda lingvistik aspekt (nutqiy strategiya) ahamiyatlidir. Undan so'ng muloqot jarayonining ekstralingvistik vositalar bilan to'ldirilganligi turadi. Uchinchi o'rinda nutqni paralingvistik vositalar (ohang, imo va ishoralar, tashqi ko'rinish, qarash va boshqalar) bilan boyitishni ko'rsatish mumkin.

**Suggestiv nutq** (taklif), E.Bibring yozganidek, bu hech qanday mantiqiy tahlil va baholashni talab qilmaydigan, berilayotgan manbaani anglashning va tanqidning pasayishi bilan bog'liq bo'lgan inson psixikasiga verbal ta'sir qilish hisoblanadi. Suggestiya bevosita gipnoz tushunchasi bilan bog'liq<sup>11</sup>. Suggestiv nutq tobe holatdagi retseptientning ma'lum g'oyalarini, hissiyoti, o'zini tutishi va boshqa mental jarayonlarni boshqarish maqsadida, dominant holatdagi suggestor (taklif qiluvchi) tomonidan amalga oshiriladi.

Ta'sir turli xil shakllarga ega bo'lishi va nutq manipulyatsiyasi doirasida amalga oshirilishi mumkin. Terminologik aniqlikning yetishmasligi, vosita va usullarning umumiy tasnifi, shuningdek, o'rganish ob'ektining fanlararo tabiati nutqiy ta'sirni ritorik shakllantirilgan nutq, til demagogiyasi, tashviqot va neyrolingvistik dasturlash (NLD) kabi tushunchalarga yaqinlashtiradi.

Manipulyatsiya va tashviqotni bir-biridan farqlash juda murakkab. Targ'ibot-tashviqot bu "qandaydir g'oya, qarash, bilim va ta'limotlarni jamiyat orasida tushuntirish va yoyishdir"<sup>12</sup>. Bir tomondan, manipulyatsiya tashviqotning ajralmas bir qismi sifatida qaraladi, boshqa tomondan, tashviqot siyosiy manipulyatsiya vositasi sifatida qaraladi. B.N.Bessonov har ikkala ta'sir turini "ma'naviy qaramlik vositalari" deb atagan<sup>13</sup>. Murakkab jihati shundaki, bu hodisalar o'rtasidagi chegarani aniq belgilash imkoni yo'qligidir: targ'ibotda yashirin ta'sir usullaridan foydalanilganiga duch kelinsa, manipulyatsiyada targ'ibot usullaridan foydalanish mumkin (masalan, ma'lumot tanlash, dalillarni buzib ko'rsatish, mutaxassislarning tor doirasiga murojaat qilish, dushmani demonizatsiya qilish kabilar).

Shunday qilib, ritorik nutq va manipulyatsiya o'rtasidagi asosiy farq shundaki, bu ochiq ta'sir bo'lib, unda adresatning qarashlari uning irodasiga qarshi emas, balki ongli ravishda o'zgaradi. Targ'ibotning ajratib turadigan belgisi esa bu

<sup>10</sup> Мегентесов С.А., Мохамад И. Лингвистические аспекты психического воздействия и приемов манипуляции. – Краснодар, 1997. – С.7.

<sup>11</sup> Бибринг Г.Л., Анализ подготовки кадров и его место в психоаналитической подготовке. // Международный журнал Психоанализ, 35, 1954. – С. 169-173.

<sup>12</sup> Толковый словарь русского языка с включением сведений о происхождении слов / РАН Институт русского языка им. В. В. Виноградова. Отв. ред. Н.Ю. Шведова. – М.: Издательский центр "Азбуковник", 2007. – С. 759.

<sup>13</sup> Бессонов Б.Н., Пропаганда и манипуляция как инструменты духовного порабощения [Электронный ресурс] / Б.Н. Бессонов // Идеология духовного подавления. – М.: Мысль, 1971. – 295 с. – <http://psyfactor.org/propaganda2.htm> (мурожаат санаси: 15.15.2020).

tarqatilishi kerak bo'lgan muayyan g'oyaning mavjudligi, informatsiya oqimining ochiq, talabchan tabiati, hissiy taqdimotidir. Demak, targ'ibot – bu har qanday mafkurani jamoatchilik fikri va xatti-harakatiga ta'sir qilish maqsadida tarqatishdir.

Inson nutqini ta'sirchan qilishda tovushlarining ahamiyati katta ekanligi ma'lum – tovush va ularni uzatuvchi harflarning assotsiativ komponenti bilan hosil qilingan til sohasi fonosemantika deb ataladi. Tovush va ma'no o'rtasidagi bu to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishlar juda noaniq, aniqlashtirish qiyin, tushunarli bo'lishi uchun ko'plab misollar bilan asoslash kerak bo'ladi, agar she'r misolida olinsa, bu alohida masala bo'ladi, ular his qilinadi, nasriy matnga qaraganda she'riy matnlarda lisoniy vositalar o'z ta'sirchanligini o'zgacha namoyon qiladi.

Nutqiy ta'sir maqsadlarida qo'llaniladigan eng ko'p tarqalgan va eng yaxshi o'zlashtirilgan til vositasi, albatta, so'z va ularning ekvivalent birikmalarini, xususan, frazeologik birliklarni tanlashdir. Leksik semantikaning xilma-xilligi tufayli so'z tanlash turli ta'sir turlari amalga oshiriladigan umumnazariy vosita bo'lib chiqadi.

Evfemizmlarning nutqdagi o'rni va ahamiyati o'ziga xosdir. Nutq madaniyatining asoiy birliklaridan desak, xato bo'lmaydi. Zero, evfemizmlar qo'pol, dag'al, o'rinsiz, sovuq so'zlar o'rniga yoqimli, qulay tushunchalarni qo'llashdir.

Zamonaviy tilshunoslikda sintaktik-semantik jihatdan nutqiy ta'sir vositalarini tanlash va qo'llash imkoniyatlari ko'p. Sintaktik qurilishni tanlash, xususan, mavjud nuqtai nazarni o'zgartirish, vaziyatdagi muayyan ishtirokchilarning diqqat markaziga kirishi yoki kiritmaslik, shu bilan bir xil evfemistik samaraga erishishi yoki, aksincha, undan qochishi mumkin.

Nutqiy ta'sirning barchaga ma'lum va tavsiflangan usullaridan – bu aniq mayl o'rniga majhul mayldan foydalanish va qayta nomlashdir, majhul mayldan foydalanganda, harakatning haqiqiy bajaruvchisi haqidagi ma'lumot mutlaqo eslatilmasligi mumkin; bu ma'lumot rostdan ham noma'lum bo'lishi ham muayyan ta'sirga asos bo'lsa-da, ma'lumotlarni ataylab yashirish alohida nutqiy ta'sirga olib keladi:

— *O'zi qaytib kelmasmikin?.. Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin! Qobil bobo yerga qarab tek qoldi.*

— *Qidirtirsakmikin-a? - dedi amin chinchalog'ini etigining ostiga artib, suyunchisi nima bo'ladi? Suyunchidan chashna olib kelinmadimi?"(Abdulla Qahhor. O'g'ri)*

Matnda yig'lanmasin, nega yig'lanadi, olib kelinmadimi kabi so'zlarda majhul nisbatning qo'llanilishi Qobil boboning ruhan ezilishi va shu tufayli poraxo'r amaldorning ichki istaklarini bajarishga tayyor bo'lishiga olib kelmoqda.

Qayta nomlash ham faol nutqiy ta'sir ko'rsatish vositalaridan biri.

Masalan, kishi nomlari – antroponimlarni ham almashtirish bu borada alohida o'rin tutadi.

Amerikalik taniqli psixolog Deyl Brekenrij Karnegi "Insonlarni og'dirib olishning olti usuli" kitobida quyidagicha fikr yuritadi: "Franklin Delano Ruzvelt

insonlarni o'ziga og'dirib olishning eng sodda, ammo samarador va ahamiyatli yo'llaridan biri ismlarni eslab qolish va insonga o'zining ahamiyatli ekanligini his qilish imkonini berish ekanligini bilgan... Yodda tuting, inson uchun uning ismi ifodasi inson nutqidagi eng shirin va eng ahamiyatli jarangdir".<sup>14</sup>

Insonlar nutqiy ta'sirning bu vositasidan samarali foydalanib keladilar:

Cho'lponning mashhur "Kecha va kunduz" romani qahramoni Razzoq "so'fining bu bobda o'ziga ko'ra asoli bir maslagi bor: u o'zi maqtanib aytganiday, xotin-xalaj oldida og'iz ochib til qaltiratishni ravo ko'rmaydi. «Bu til, — deydi so'fi, — doim xudoning zikri bilan qaltiraydi. Bu og'iz hamma vaqt xudoning zikriga ochiladi. Og'iz bilan til — bandaning jismida eng aziz va tabarruk a'zolar. Ularni xotin kishiday past maxluq oldida xor qilinadimi? Bo'lmasa, haq taoloning bandalari it bilan ham gaplasha bersin! Yo'q, xotin kishiga juda zarur gap aytiladi, u toifa bilan zarurat yuzasidangina gaplashiladi. Vassalom!"

Ayollarga bunday past nazar bilan qarash uning ayoliga murojaatida ham namoyon bo'ladi, "u o'z halol jufti Qurvonbibini hamma vaqt «Fitna» deb chaqiradi: «Fitna, sallamni ber!», «Fitna, qiz o'lguring qani?», Fitna, puldan uzat!" yoki "— E ablah, Fitna!— dedi so'fi kulib turib. — Esing yo'qligi shu-da! Shu-da esi pastliging! Shu-da xotinliging!", "So'fi yana past toifa oldida muborak og'zini ochib, aziz tilini qaltiratmoqqa majbur bo'ldi.— Badbaxt Fitna! Qo'yananmi, qo'ymanmi, axir? «Hubbil vatani minal-imon», deganlar — «vatanni sevish imondan», axir! Bilmasang bekor-da, Vatani yo'q — dunyoda lo'li, xolos. Meni bevatan, deb bildingmi?"(Cho'lpon, Kecha va kunduz)

Bu bilan ayoliga nutqiy ta'sir o'tkazib uni mensimasligi, odam o'rnida ko'rmasligini ta'kidlaydi. Nutqida unga nisbatan "ablah", "badbaxt" kabi so'zlarni qo'llash bilan tazyiqni yanada kuchaytiradi.

Cho'lpon asaridagi aynan shu jihatga prof. S.Mo'minov ham e'tibor qaratib, quyidagicha yozadi:

"Garchi bu gaplar Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi Razzoq so'fini qora qilib turib aytilgan bo'lsa-da, aslida o'zbek oilalarida o'ziga xos murojaat shakllari haqida ma'lumot beradi. Jumladan, Xorazm vohasida xotinning ismini aytib chaqirsa, odamlar ayolga nisbatan yomon fikrda bo'ladilar. U kelinlik vaqtdan boshlab erining ismini aytib chaqirmaydi. Aks holda, u erini o'zidan past ko'rgan hisoblanadi. Xotinlar erlarining ismlari o'rnida asosan "boboy", "usta", "og'a", "aka", "buva" kabi so'zlarni ishlatadilar. Ayni paytda er ham xotiniga nisbatan "momoy", "kampir" kabi so'zlarni qo'llaydilar. Shuningdek, Xorazmda bobosi hayot bo'lgan bolalarga o'z otasiga "aka" deb murojaat qilishni o'rgatadilar. Agar bolalar "ota" deb chaqirsa, bu yosh otaning o'z otasiga, ya'ni bolalarning bobosiga hurmatsizlik deb baholanadi. Surxondaryo, Qashqadaryo tomonlarda kelinlar o'zlari kelin bo'lib tushgunga qadar tug'ilgan qaynog'a, qaynsingillarining ismlarini aytib chaqirishlari uyat sanaladi. Ism o'rnida "sher bola", "toy bola", "qizcha", "o'g'ilcha" kabi so'zlarni qo'llaydilar."<sup>15</sup>

<sup>14</sup> Карнеги Д. Шесть способов располагать к себе людей.//Greatwords.org^authors\218

<sup>15</sup> Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. – Фарғона, 2021. – Б.137-138.

Ishonch bilan aytish mumkinki, insonning kelajakdagi taqdiri yurist yoki shifokor, ayniqsa, o'qituvchi, umuman ziyoli nutqining sifatiga bog'liq. Masalan, sud jarayoni natijalari sudyalarning ishontirish qobiliyatiga bog'liq. Notiqlik kuchi orqali, hatto zaif dalillar bazasi bilan ham g'alaba qozonish ehtimoli katta.

Nutqiy ta'sir ko'rsatishda kerakli darajaga erishining muhim shartlaridan biri – muloqot qilining asosiy qoida va omillariga rioya qilishdir. Og'zaki nutqiy ta'sir etish qoidalarini bir necha omillarga bog'lagan holda tasniflash mumkin. Dissertatsiyada bu omillar bafurja tahlil qilingan.

Ishning ikkinchi bobi: **“Nutqiy ta'sir etishning kognitiv-pragmatik xususiyatlari”** deb nomlangan va **“Muloqot jarayonidagi nutqiy ta'sir”**, **“Nutqiy ta'sir usullarining kognitiv mezonlari”**, **“Matnlarda nutqiy ta'sir etishning ayrim pragmatik xususiyatlarining psixolingvistik talqini”** kabi qismlardan iborat.

Til muloqot jarayonida nafaqat ma'lumotni uzatish, balki adresatga ta'sir ko'rsatish vazifasini ham bajaradi. Akademik V.Vinogradov muloqot ta'sirini aloqa va xabar bilan bir qatorda tilning eng muhim uchinchi funksiyasi sifatida ko'rsatadi<sup>16</sup>. Til shaxslararo va ijtimoiy munosabatlarni, inson hissiyotlari va xatti-harakatlarini boshqaradi. Ushbu “nutq yordamida bir odamning boshqasi tomonidan boshqarilishi” nutq ekspozitsiyasi ya'ni nutqiy ta'sir deb ataladi<sup>17</sup>.

Nutqiy ta'sir – bu murakkab psixologik jarayon bo'lib, uni tadqiq qilish fanlararo muammo hamdir.

Tilshunoslikda nutqiy ta'sir nutq faoliyatining bir qismi sifatida qaraladi.

Insonning kundalik faoliyatida turli xil holatlarda muloqotga kirishishini inobatga olgan xolda, muloqot jarayonidagi nutqiy ta'sir o'tkazishning asosiy maqsadlari quyidagicha tasniflandi:

1) kommunikativ maqsad– suhbatdosh bilan munosabat o'rnatish, uni qo'llab-quvvatlash;

2) mavzu maqsadi – mavzuni qabul qilish, ma'lumot olish yoki suhbatdosh xatti-harakatini o'zgartirish;

3) axborot maqsadi – xabarni qabul qiluvchiga yetkazish, uning xabarni to'laligicha qabul qilinganligiga ishonch hosil qilish.

Samarali nutqiy ta'sir ana shu uch maqsadni amalga oshirishni ko'zda tutadi. Nutqiy ta'sirning ko'plab turlari mavjud bo'lib, ularni turli me'yorlar asosida tasniflash mumkin. Masalan: muloqot vositalarining tabiatiga ko'ra nutqiy ta'sir verbal va noverbal turlarga bo'linadi. Og'zaki nutqiy ta'sir muloqotning lisoniy birliklaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Noverbal – paralingvistik, nolisoniy vositalar, ya'ni nutq bilan birgalikda qo'llanuvchi imo-ishoralar, yuz ifodalari, ovoz tembri, so'zlovchining ko'rinishi va boshqalar yordamida muayyan axborotlar uzatiladi.

<sup>16</sup> Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики / В.В. Виноградов. – М.: Высш. шк., 1981. – С. 48.

<sup>17</sup> Тарасов Е.Ф. Речевое воздействие как проблема речевого общения / Е.Ф. Тарасов // Речевое воздействие в сфере массовой коммуникации / отв. ред. Ф.М. Березин, Е.Ф. Тарасов. – М: Наука, 1990. – С. 6.

Shu o'rinda, kreollashgan matn hodisasini yodga olish joiz. Kreollashgan matn verbal (matn, yozuvlar) va tasviriy, vizual yoki noverbal (rasm, fotosurat, diagramma, jadval, formula va boshqa) unsurlardan iborat bo'ladi<sup>18</sup>.

Muloqot jarayonida nutqiy ta'sirning ko'plab turlariga duch kelish mumkin. Tadqiqotchilar tomonidan ular turli parametrlariga ko'ra tasniflangan, ushbu tasniflar dissertatsiyada ko'rib chiqilgan.

Nutqiy ta'sir hodisasining eng muhim ikki jihati mavjud bo'lib, uni kommunikantlarning umumiy ongi va muloqotning maqsadga muvofiqligini hisobga olish asosida tasvirlash mumkin. Birinchisi, asosan, muloqotni tashkil etish, ikkinchisi – ta'sirni amalga oshirish, ya'ni perlokutsiya bilan bog'liq<sup>19</sup>. Bu parametrlarga ko'ra, nutqiy ta'sirni o'rganishda ikkita asosiy yondashuv (barqarorlik va ruhiy mushtaraklik) ni farqlash lozim.

Matnni idrok etishning o'zgaruvchanligi, bizningcha, bir qancha psixologik sabablar bilan izohlanadi. Avvalo, bu shaxsning motivatsion, kognitiv va hissiy sohalarining namoyon bo'lishini o'z ichiga olishi kerak: insonni ushbu matnga murojaat qilishga undagan ehtiyojlar, motivlar va maqsadlar; matnni idrok etish paytidagi hissiy kayfiyat; idrok etilgan axborotga diqqatni jamlash darajasi va boshqa holatlarda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, sud-huquq tizimi, xususan, tergov jarayonlarida gumonlanuvchiga ta'sir o'tkazish orqali ma'lumot olish jarayonlarida nutqiy ta'sir masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tergov jarayonida suhbatdoshga ta'sir ko'rsatishning turli usullari mavjud, mohir tergovchi, albatta, nutqiy ta'sir o'tkazish yo'lini tanlaydi. O'zbek xalqida bir odat bor: biror kishi baqirib gapirsa, ruhiy tushkunlik boshlanadi, ya'ni baland ovozda do'q bilan gapirish atrofdagilarni bo'ysundirishga yordam beradi. Odatda ichki ishlar xodimlari ham bu usuldan samarali foydalalanadi: *U boshqa suratni ko'rsatdi. — Oxirgi marta qachon boruvdilaring? — deb so'radi Zohid. — Uch kun bo'ldi. — Balki to'rt kundir? — Vey bratan, man o'zim borganman. Soqqa yo'g'idi, qarzga bergan. Nishtyak odam u. O'zini laboratoriyasi bor. Ayn moment tayyorlab beradi. — Laboratoriyasiga kirganmisan? — Kirganman-de. Shundoq chap tomonda. — Ayvondan o'tgandami? — Ha-de, bilib turib so'ruvrasizmi? Zohid «bu yog'iga nima deysiz?» deb Hamdamga qaradi. — Ayvonning oldi rommi? Labi osilgan yigit o'ylanib qoldi. — Rom bo'lsa kerak, — dedi ikkilangan holda. — **Yolg'on gapirma!** — dedi Hamdam baqirib. — Bratan, aldavotganim yo'q.*

Tergovchining ohang o'zgarganidan so'ng guvohlar tilga kira boshladi. Jinoyatchilarning o'z tilida gaplashish ham muloqotning samarali bo'lishiga yordam beradi. Inson ruhiyati o'ziga xos, har bir kishiniki boshqasiga o'xshamaydigan alohida yaralgan. Shuning uchun ichki ishlar xodimlari jinoyat olamida yurganlar bilan vaziyatga ko'ra ularning "tili"da gaplashib, nutqiy ta'sir o'tkaza oladi: *Hamdam unga yaqinlashib, yoqasini changallab o'rnidan*

<sup>18</sup> Удод Д.А. Креолизованный текст как особый вид паралингвистически активного текста / Д.А. Удод // Современная филология: материалы II междунар. науч. конф., Уфа, январь 2013 г. – Уфа: Лето, 2013. – С. 99.

<sup>19</sup> Ермолаев Б.А. Целеобразование в коммуникации // Оптимизация речевого воздействия. – М.: Наука, 1990. – С. 46-55.

*turg'izdi. — Yolg'on gapirma, xunasa, uyida bo'lmagansan. Ayvoni yo'q uning. Labi tirtiqliq birdan tutqanog'i tutgan odamdek baqirib yubordi: — Qo'yvoring! Men kechasi borganman. Ayvoniga qarabmanmi, o'zi zo'rg'a turuvdim. — Borganmisan?! — Ha, borganman! — Uch kun oldinmi? — Ha, uch kun oldin. — Juda yaxshi! — Hamdam uni qo'yib yubordi. — Menga shu kerak edi. Yozib qo'ying, o'rtoq prokuror. Borganini tan oldi.*

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, shaxsga nutqiy ta'sir ko'rsatib uni turli ruhiy holatga solish mumkin.

Tom ma'nosidagi muloqot quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Axborot almashinuvi. Bu shuni anglatadiki, muloqot jarayonida axborot barcha muloqot ishtirokchilari tomonidan bir-biriga uzatilishi kerak, ya'ni axborotning o'zaro mutanosibligi bo'lishi kerak – har ikki tomon ham axborot uzatadi va qabul qiladi. Agar kimdir gapirsa va boshqalar faqat tinglashsa – bu aloqa emas. Televizor, gazeta, svetofor, telefon orqali javob beruvchi avtomat, kompyuter ma'lumot uzatadi, lekin biz ular bilan muloqot qilmaymiz.

2. Axborot almashinuvi suhbatdoshlar tomonidan ongli ravishda amalga oshirilishi lozim. Axborotni uzatish ikkala suhbatdoshning niyatining bir qismi bo'lishi kerak. Agar suhbatdosh narigisi nimadir demoqchi deb taxmin qilsa-da menga tegishli biror narsa haqida taxmin qilsa-da, bu muloqot natijasi emas. Bu suhbatdoshning so'zlarini o'zicha talqin qilish, taxmin yoki sezgi natijasi. Taxmin tasdiqlanishi uchun muloqotning barcha uzvlari tiklanishi mumkin.

3. Axborot uzatishning maqsadga muvofiqligiga ko'ra agar o'ziga yo'naltirilmagan suhbat eshitilsa, gapiradigan kishi bilan muloqot amalga oshmaydi – chunki xabar ongli ravishda eshituvchiga yo'llanmaydi. Sezdirmasdan boshqaning nutqini eshitish, axborot mazmunini o'zlashtirish muloqot hisoblanmaydi. Yoki televidenie va radio orqali eshittirilgan, namoyish qilingan ma'lumotni o'zlashtirish muloqot shakllariga kirmaydi. Muloqot ishtirokchilarining niyati – axborotni bir-biriga maqsadli uzatishdir.

4. Axborot almashishni ratsional rasmiylashtirish axborot almashinuvi tayyorlangan shaklda amalga oshirilishi, o'z birliklari, tuzilishi va rejasiga ega bo'lishi, bir butun mazmunga ega bo'lishi, ya'ni butun muloqot harakati tushunarli bo'lishi mumkin bo'lgan tayyorlangan va mazmunli xususiy bayonlardan iborat bo'lishi kerak. Har ikki tarafdagi axborotning og'zaki ifodalanishi ma'lum kod talablariga javob berishi – shu tilda amalga oshirilishi, o'zaro ma'lum lisoniy birliklar va strukturalarni o'z ichiga olishi kerak. Agar biror kishi alahsirasa, kasallik tufayli g'o'ldirab gapirsa – bu muloqot emas. Undovlar, hissiyotli qichqiriqlar muloqotni yuzaga keltirmaydi. Ta'sir kuchi baland bo'lsa-da, ularni nutqiy ta'sir doirasiga kiritib bo'lmaydi. Nutqiy ta'sir elementlari ular tomonidan to'ldirilishi mumkin, ammo mustaqil ravishda nutqiy ta'sir uzvi bo'lishi uchun muloqotning har ikki tomoni ravshanlik talablariga javob berishi kerak.

5. Muloqot jarayonida suhbatdoshlar bir-birlarini individuallashtirishlari, ya'ni bir-birlarining o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlashlari, suhbatdoshni boshqa odamlardan farqlashlari lozim. Suhbatdosh sezgilar orqali idrok etilishi, boshqalardan ajralib turishi, unga ma'lum munosabat – musbat yoki manfiy –

shakllanishi lozim. Misol uchun, hamkasbimiz yoki begonaga "Sizga yordam kerakmi?", deb aytsak, turlicha ma'noni anglatadi.

6. Aks aloqa. Suhbatdosh muloqot paytida aks aloqada bo'lishi kerak. Agar men gapirayotgan bo'lsam va suhbatdoshim meni eshitadimi, yo'qmi, men unga aytgan narsamni qabul qiladimi (va bu fikr-mulohazaning mavjudligini aniq ko'rsatib turibdi), biz bilan muloqot amalga oshirilmaydi. So'zlovchi suhbatdoshning reaksiyasini kuzatib, so'zlovchiga qarasa, nolisa, rozi bo'lsa, rozi bo'lsa yoki aksincha, kelishmovchilik bildirsa, so'zlovchi o'z xabarini to'g'rilab qo'yadi. Agar o'zaro hurmat bo'lmasa, aloqa samaradorligi masalasi shubhali bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, televizor ekrani, gazeta, kitob orqali aloqa to'liq muloqot hisoblanmaydi, chunki bu holatda aks aloqa tasodifiy va to'liq emas.

7. Suhbatdosh bilan hissiy aloqa muloqot jarayonida muhim. Agar hissiy aloqa bo'lmasa, muloqot amalga oshirildi deb hisoblash mumkin emas – bu faqat axborot almashinuvidir. To'liq muloqot qilish uchun suhbatdosh bilan hissiy aloqada bo'lish kerak.

Muloqot har ikkala tomonning ijobiy yoki salbiy, bir tomonning ijobiy va bir tomonning salbiy hissiyotlari bilan bo'lishi mumkin – har qanday holatda ham muloqot bir yoki bir nechta tarzda amalga oshiriladi.

Muloqot turlarining tipologiyasi turli asoslarda bo'lishi mumkin, biz faqat eng muhim narsalarga e'tibor qaratamiz. Muloqot mavzusi turlicha bo'lishi mumkin, masalan: siyosiy, ilmiy, maishiy, diniy, falsafiy, ma'rifiy, ma'rifiy, mavzularda suhbatlashilganda, har biri o'ziga xos lisoniy vositalardan foydalanish kerakligi talab qiladi. Muloqot turlarining mavzuiy tasnifi muayyan kommunikativ vaziyatda – siyosat, fan, ta'lim, madaniyat, ma'naviyat, iqtisod, biznesda muloqotning ustuvor mavzusini aniqlashga asoslangan bo'ladi. Jamiyatda ko'plab ommalashgan muloqot sub'ektlari mavjud bo'lgani kabi bir qator mavzularda muloqot shakllari va turlari qo'llaniladi.

Rasmiyatchilik nuqtai nazaridan muloqotlar rasmiy yoki norasmiy bo'lishi mumkin. Rasmiy muloqot kommunikativ vaziyatlarda – rahbar va xodim, kasbdosh, sotuvchi-xaridor, mijoz-tinglovchi, talaba-o'qituvchi, gumonlanuvchi-advokat, fuqaro – hokimiyat vakili, iltimos qiluvchi-mansabdor shaxs va boshqalar o'rtasida olib boriladi. Rasmiy muloqot sharoitida muloqot qilayotganlarning roli juda aniq belgilangan bo'ladi.

Jamiyatda rasmiy siyosiy muloqotlar bir-birining rasmiy ijtimoiy mavqeiga barcha ishtirokchilar tomonidan qat'iy rioya qilinishini nazarda tutadi. Norasmiy muloqot maqom nuqtai nazaridan biror belgilangan me'yorlariga rioya qilishni nazarda tutmaydi, uning doirasida ko'plab rasmiy me'yorlarni buzish (yoki aksincha, rioya qilmaslik) tashabbusi bilan osongina muloqot qilishingiz mumkin bo'ladi. Muloqotlar shakliga ko'ra: yopiq, ochiq yoki aralash bo'ladi. Yopiq aloqa kommunikantlarning sub'ektiv pozitsiyalari asosiy ahamiyatga ega bo'lmaganda, ular muloqot xususiyatini belgilamaydi.

Kishilar o'rtasida yopiq muloqot orqali tashkil etilgan suhbatning mazmuni asosan umumiy ta'sir doirasiga tushadi, shu sababdan bu juda kam ahamiyatga ega bo'ladi. Kishilar o'rtasidagi alohida kasb doirasida yoki ijtimoiy-maishiy masalalarda muloqot qilishda bir mavzuga yopishib olish va ushbu ijtimoiy

muhitda yoki guruhda ushbu turdagi muloqot uchun qabul qilingan shakl va qoidalarga rioya qilishini taqozo qiladi. Bu, masalan, umumiy mavzulardagi dunyoviy muloqot yoki oddiy suhbat hisoblanadi. Dunyoviy muloqot bir necha maqsadlarni ko'zlaydi:

- 1) muayyan vaqtni suhbat bilan to'ldirish;
  - 2) so'zlovchi va tinglovchilarning ma'lum guruhga mansubligini namoyish etish;
